



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY SUDI

100186, Toshkent sh., Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 1

13.05.2026-yil №09/05-1534-26

Kobe universiteti
Ijtimoiy fanlar sohasida
innovatsiya markazi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Kobe universiteti Ijtimoiy fanlar sohasida innovatsiya markaziga o‘zining samimiy ehtiromini izhor etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-33-sonli Qaroriga muvofiq, yangi tahrirdagi Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeks loyihasini keng muhokama qilish jarayonida xalqaro hamkorlik aloqalari izchil rivojlanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Kobe universiteti Ijtimoiy fanlar sohasida innovatsiya markazi o‘rtasida imzolangan hamkorlik memorandumini doirasida sud-huquq tizimining dolzarb masalalari bo‘yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2025 yil oktyabr–dekabr oylarida 8 ta seminar mashg‘ulotlari muvaffaqiyatli tashkil etildi hamda 2026 yil may–dekabr oylariga mo‘ljallangan qo‘shimcha seminarlar rejasi tasdiqlandi.

Joriy yilning 1 may kuni bo‘lib o‘tgan “Ma‘muriy sud ishlarini yuritishning fuqarolik sud ishlarini yuritishdan farqi” mavzusidagi seminar doirasida Kobe universiteti professorlari — Yuka Kaneko, Narufumi Kadomatsu va Yukio Okitsu tomonidan bildirilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasida ma‘muriy sud tizimini takomillashtirish jarayoniga munosib hissa qo‘shmoqda.

Shu munosabat bilan, **Yuka Kaneko xonim, Narufumi Kadomatsu va Yukio Okitsu janoblari** O‘zbekiston Respublikasida sud-huquq islohotlarini amalga oshirish jarayonida faol ishtirok etayotgan **xalqaro ekspertlar** sifatida e‘tirof etilganligini ma‘lum qilamiz.

Professorlarning sud sohasidagi ilmiy, amaliy tajribasi bilan bo‘layotgan islohotlarni qo‘llab, ularda ishtirok etayotganligi yuqori baholanib, mazkur maqomga munosib deb topildilar.